

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251696>

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KATTA VA  
TAYYORLOV GURUHLARI TARBIYALANUVCHILARINI SON VA  
SANOQQA O'RGATISH METODIKALARI**

**M.U.Azimova**

Navoiy Davlat Universiteti,  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi v.b dotsenti

**D.Q. Boboqulova**

Navoiy Davlat Universiteti,  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi  
3a- MT 22 guruh talabasi

**ANNOTATSIYA:** *Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning dastlabki bilim va ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, son va sanoq tushunchalari bilan tanishtirish orqali ularda matematik fikrlash va analitik ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Ushbu maqola katta va tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilarni son va sanoqqa o'rgatishning samarali metodikalarini ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *son va sanoq, tarbiyachi, bolalar, maktabgacha tarbiya, o'yin, huddi shunday, bitta va ko'p.*

**ABSTRACT:** *Today, in preschool educational organizations operating in our country, one of the urgent tasks is the formation of children's initial knowledge and skills. Thus, familiarity with the concepts of number and counting gives them the opportunity to develop mathematical thinking and analytical skills. This article discusses effective methods of teaching senior and preparatory groups of students to number and numeracy.*

**Keywords:** *number and counting, educator, children, preschooler, game as it is, one and many.*

## KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION)

Son va sanoq tushunchalarini o'rgatishning ahamiyati. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o'qitish o'ziga xos xususiyatga ega. Maktabgacha tarbiya yoshida echilishi kerak bo'lgan vazifalar hal qilinmasa, maktabgacha o'qitish muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Bu vazifalardan biri konkret bilimlar va tafakkur usullaridan abstrakt bilim va usullarga o'tishdan iborat. Bu xil o'tish saviyasi, ayniqsa, matematika o'qitish uchun zarurdir. Bunday savyaning bo'lmasligi yoki etarli bo'lmaligi ikki tomonlama qiyinchilikka olib keladi. Bir tomondan, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ko'pincha maktabga mavhum matematik usullarni egallagan holda keladilar, bularni bartaraf qilish juda qiyin bo'ladi. Ikkinchi tomondan, bolalar maktabda abstrakt bilimlarni egallar ekanlar, ko'pincha ularni formal, asl mazmunini tushunib etmagan holda o'zlashtiradilar. Shuning uchun ham konsret shart – sharoitlarda matematik usullarni egallagan holda keladilar, bularni bartaraf qilish juda qiyin bo'ladi

Son va sanoq tushunchalarini o'rgatish bolalarning matematik tafakkurini rivojlantiradi, ularni atrof-muhitni tahlil qilishga va oddiy masalalarni hal qilishga tayyorlaydi. Bu jarayon orqali bolalarda:

- Mantiqiy fikrlash;
- Ob'yektlarni solishtirish va tartibga solish;
- Koordinatsion ko'nikmalar rivojlanadi[1].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ/METHODS)

- Son va sanoqni o'rgatishda o'yin elementlarini ko'proq qo'llash.
- Har bir bolaga individual yondashuvni ta'minlash.
- Texnologiyalardan keng foydalanish va interaktiv darslarni tashkil etish.
- Ta'lim jarayonini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda rejalashtirish[2,3]

## **NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)**

O'yinlar orqali o'rgatish bolalarning qiziqishini oshiradi va jarayonni yanada samarali qiladi. Misollar:

- "Kim ko'proq to'playdi" o'yini: bolalar raqamli kartochkalarini yig'ib, ularni son bo'yicha tartibga soladi.

- "Matematik poyga": bolalar guruh-guruh bo'lib berilgan masalalarni yechadi.

Ko'rish orqali o'rganish bolalar uchun osonroqdir. Masalan:

- Rangli kartochkalar, ob'yektlar sonini ko'rsatadigan rasmlil plakatlar.

- Sanoq tayoqchalari va kubiklar yordamida amaliy mashg'ulotlar.

Zamonaviy texnologiyalar (interaktiv doskalar, ta'lim dasturlari) orqali bolalar virtual muhitda son va sanoqni o'rganadi. Bu usul bolalarning qiziqishini oshirish bilan birga, yangi avlodning texnologiyalarga moslashuvini ta'minlaydi[2,3]

## **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)**

Bosqichma-bosqich o'qitish strategiyasi

Bolalarni 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar bilan tanishtirish. Bu bosqichda ko'proq vizual va o'yin elementlariga e'tibor beriladi.

10 dan katta sonlarni o'rgatish va amaliy mashqlar orqali bilimlarni mustahkamlash. Misol:

- Turli rangdagi tayoqchalar yordamida qo'shish va ayirish amallarini bajarish.

- Guruhiy mashqlar: bolalar birgalikda masalalarni hal qiladi.

Maktabga tayyorlanayotgan bolalar bilan arifmetik amallarni yechish, masalalar tuzish va ularga javob topish mashqlarini bajarish[2,3,4]

## **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)**

Son va sanoqni o'rgatish jarayoni bolalarning matematik qobiliyatlarini shakllantirish va ularni maktabga tayyorlashda muhim bosqich hisoblanadi. Zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Tarbiyachilar o'quv jarayonini bolalarning qiziqishlariga mos ravishda tashkil etishlari zarur.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasi Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. T.: 2018.
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, N.Kayumova, M.A’zamova. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent: Tafakkur. 2019.
3. G.E.Djanpeisova, B.N.Hojimuratova “Matematik tasavvurlarni shakllantirish” T.; “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.
4. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. T. : 2018.